

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev Hududiy tashkil etishning ba'zi nazariyalarida aholi omilining o'рни va ahamiyati	6
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlar vertikal tabaqalanishini matematik modellashtirish.....	15
Q.S.Yarashev, B.B.Yusupov Ekoturizm resurslardan oqilona va samarali foydalanishning ayrim masalalari (Dehqonobod tumani misolida)	22
T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbonov, K.O.Daljanov Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari	30
O.T.Mirzamahmudov Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirish yo'llari	36
O.M.Qo'ziboyeva, Z.Sherbayeva Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri	41
G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev Xavfli meteorologik hodisalarning takrorlanuvchanligini baholash (Farg'ona viloyati misolida) ..	45
Sh.Z.Jumaxanov, Sh.Sh.Zoirjonov Aholi xulq-atvorining etnolingvistik xususiyatlarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish	54
R.Y.Xoliqov Farg'ona vodiysi paragenetik landshaftlari o'rtasidagi geokimyoviy migratsion jarayonlarning geoekologik muhitga ta'siri.....	61
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va ularning tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari.....	64
Y.I.Ahmadaliyev, O.I.Abdug'aniyev, J.G'.Eminov Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash	68
D.G'.Mo'minov, O.Q.Tobirov Farg'ona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini baholashning bazi jihatlarini.....	81
K.M.Xakimov Antroponimik model: milliy familiya va uning zaruriyati haqida	87
Y.B.Raxmatov Buxoro viloyatining cho'l xududlarida suvdan samarali foydalanishning geografik muammolari	93
R.T.Pirnazarov Shohimardonsoy havzasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik imkoniyatlari	96
P.R.Qurbonov Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining sotsial jihatlarini.....	103
H.A.Oblaqulov, Y.R.Buranov, M.Sh.Qo'ziyeva Navoiy viloyat aholisining dinamikasi va hududiy joylashuvi.....	113
Z.X.Madaminov Iste'mol geografiyasi fani, uning rivojlanishi, iste'mol savatchasi tushunchasi va uni tadqiq qilish	118
E.G'.Mahkamov Farg'ona vodiysida turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari	122
Z.A.Temirov Mehnat resurslari va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi o'rtasidagi hududiy muammolarni geografik o'rganish.....	128
M.M.Avezov, A.M.Elmurotova Kattaqo'rg'on tumanining geologik va orografik tuzilishiga umumiy tabiiy geografik tavsif	135
M.R.Usmanov O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar.....	140

HUDUDY TASHKIL ETISHNING BA'ZI NAZARIYALARIDA AHOLI OMILINIG O'RNI VA AHAMIYATI

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ФАКТОРА НАСЕЛЕНИЯ В НЕКОТОРЫХ ТЕОРИЯХ ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE POPULATION FACTOR IN SOME THEORIES OF TERRITORIAL ORGANIZATION

Ahmadaliyev Yusufjon Ismoilovich¹¹Farg'ona davlat universiteti,
geografiya kafedrası professori, g.f.d.**Abduvaliyev Xayitboy Abdug'aniyevich²**²Farg'ona davlat universiteti,
geografiya kafedrası dotsenti v.b., g.f.f.d. (PhD)**Annotatsiya**

Maqolada XIX-asrdan boshlab iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot fanlarining rivojlanishi bilan shakllantirilgan o'ziga xos nazariyalar ko'rib chiqiladi. Xususan, ularning ichida hududiy tashkil etish masalalariga bag'ishlangan, har bir tashkil etishlarda geografik o'rinning mohiyatiga tayangan yetakchi nazariyalar taxlil etiladi. Albatta, bugungi jamiyatda har qanday tashkil etishlarning bosh sababi hisoblangan inson omilidan kelib chiqib, tashkil etilishlarning tub mohiyatida doimo aholi (inson) bo'lganligi, tashkil etish jarayoni inson va uning manfaatlari (iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik) nuqtai-nazaridan amalga oshirilgani asoslantiriladi. Shuningdek, aholini hududiy tashkil etish masalalarida e'tiborga molik g'oya va nazariyalar mazkur maqola doirasida ko'rib chiqiladi.

Аннотация

В статье рассматриваются уникальные теории, сформировавшиеся в результате развития наук экономической географии и региональной экономики, начиная с XIX века. В частности, среди них анализируются ведущие теории, посвященные вопросам территориальной организации, исходя из сущности географического положения в каждой организации. Конечно, исходя из человеческого фактора, который считается основной причиной любой организации в современном обществе, оправдано то, что население (человек) всегда находится в основе организации, и что процесс организации осуществляется из мировоззрения человека и его интересы (экономические, социальные, экологические). Также в статье рассматриваются важные идеи и теории в вопросах территориальной организации населения.

Abstract

The article examines unique theories that emerged as a result of the development of the sciences of economic geography and regional economics, starting from the 19th century. In particular, among them the leading theories devoted to issues of territorial organization are analyzed, based on the essence of the geographical location in each organization. Of course, based on the human factor, which is considered the main reason for any organization in modern society, it is justified that the population (man) is always at the core of the organization, and that the process of organization is carried out from the worldview of a person and his interests (economic, social, environmental). The article also discusses important ideas and theories in matters of territorial organization of the population.

Kalit so'zlar: hududiy tashkil etish, aholini hududiy tashkile tilishi, aholi joylanishi, joylashtirish nazariyasi, hududiy tizimlar, joylashtirish modellari, ixtisoslashtirish, joylashtirish, qulay hududlar.

Ключевые слова: территориальная организация, территориальная организация населения, расселение населения, теория расселения, территориальные системы, модели расселения, специализация, расселение, благоприятные территории.

Key words: territorial organization, territorial organization of the population, population settlement, theory of settlement, territorial systems, settlement models, specialization, settlement, favorable territories.

KIRISH

Aholining hududiy tashkil etilishi bir vaqtning o'zida aholini taqsimlash jarayonlari yig'indisini va bu jarayonlarni baholash bilan bog'liq barcha masalalarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Bu aholining holati, dinamikasi, zichligi, tarkibi, demografik jarayonlarning intensivligi, yosh va jins tarkibi hamda oila holatini tahlil qilishni ham qamrab oladi. Shuningdek, irqiy-etnik, til va diniy masalalarni, ta'lim darajasini va yana ko'plab boshqa masalalarni ham hisobga olinishi kerak. Bu ma'lumotlarsiz aholini tashkil etish va taqsimlash masalalari haqida fikrlash mumkin emas. Shuning uchun ham aholini hududiy tashkil etish jarayonlari aholi punktlari tizimining rivojlanishiga, aholi punktlari tarmog'ining shakllanishiga, migratsiya jarayonlariga ta'sir etuvchi qonuniyatlar va omillarni aniqlashdan iborat.

Shuning uchun, yangi aholi maskanlari tashkil etishda aholini yangi manzillarga ko'chishi muammolarini hal qilish, aholini taqsimlashni optimallashtirish yo'llarini belgilash, boshqaruv modelini va rivojlanishni rejalashtirish lozim bo'ladi. Bular jamiyatni asosiy vazifalaridir. Busiz butun jamiyatning ham, alohida hududiy jamoalarning ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini optimallashtirish mumkin emas.

Aholining hududiy tashkil etilishi aholi geografiyasining eng muhim muammolaridan biri bo'lib, aholining hudud bo'ylab notekis taqsimlanishi aynan qanday va nima sababdan shu tarzda shakllanganligini o'rganadi hamda uning geografik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy kabi qator omillarini asoslaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mamlakatimizda ko'plab tadqiqotchilar aholi bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik masalalarni o'rgangan. Jumladan, M.Q.Qoraxonov (1983), I.R.Mullajonov (1983), G.R.Asanov (1994), A.A.Qayumov (2000), L.P.Maksakova (2001), M.R.Bo'riyeva (2005), A.S.Soliyev (2005), O.B.Ata-Mirzayev (2006), E.A.Axmedov (2006), R.A.Ubaydullayeva (2006), B.X.Umurzaqov (2007), N.X.Raximova (2007), Q.X.Abduraxmonov (2010), X.X.Abdurahmonov (2010), N.J.Yembergenov (2011), Z.N.Tojiyeva (2010, 2017), X.Abduvaliyev (2020), R.Qodirov (2021), X.Oblaqulov (2021), Z.Temirov (2022) kabi tadqiqotchilar ishlarida mamlakatimiz aholishunosligi, demografiyasi, shaharlar va aholi geografiyasi, mehnat resurslaridan foydalanish va aholi bandligi, aholining hududiy tashkil etilishiga oid bir qator ishlar amalga oshirilgan.

Mamlakatimizda aholi va u bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni o'rganishda shakllangan tadqiqot yo'nalishlariga qarab, tadqiq etish usullari ham shakllangan. Xususan, sof geografik yo'nalish bo'lgan tadqiqotlarda yani, aholining hududiy tarqalishi, joylashishi va unga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etishda B.S.Urlanis, M.Bo'riyeva, Z.N.Tojiyevlar tomonidan taklif etilgan usullardan foydalanilsa, aholining joylanishi bilan bog'liq tadqiqotlarda Sh.Sharipov, Sh.Jumaxanov, X.Abduvaliyevlar tomonidan taklif etilgan usullardan foydalanilmoqda. Shuningdek, etnologiyaga xos yo'nlishlarda R.Baliyeva, Y.Ahmadaliyev, U.Abdullayev, X.Raxmatullayev, N.Komilova, X.Oblaqulovlar tadqiqotlarida taklif etilgan usullardan foydalanil maqsadga muvofiq [2].

Biroq, XIX-asr oxiri XX-asr boshlari ko'plab turli hududiy tashkil etish masalalari ko'tarildi. Ular qaysi maqsadda ishlab chiqilmasin, ilgari surimasin baribir unda inson omilining roli (asosan iste'molni) asosiy bo'g'inda turaverdi. Shuning uchun bugungi jamiyatda ham aholining hududiy joylanishidagi nazariyalar ko'rib chiqilganda, uning (aholining) yordamchi sohalari ham birdek ko'rib chiqilishi shart. Hududiy joylanishni qishloq xo'jaligi, sanoat yoki transport nuqtai-nazardan ko'rib chiqish lozim bo'lsa, baribir ular hududiy joylanish bo'lganligi sababli inson ehtiyojlari uchun xizmat qiladi. XIX-asrda g'arbda sanoat yanada jadal rivojlandi. Natijada aholining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishi, o'rnashishi ham jadallashdi. Sanoat o'ziga katta ishchi kuchini jamlay oldi va bu aholining qisqa fursatlarda yirik sanoat markazlarida yeg'ilishiga sabab bo'ldi. Sanoatlashuvning jadallashishi ishlab chiqarishni joylashtirish nazariyalarining keng tarqalishiga olib keldi. Bu o'rinda aholining joylanishiga ta'sir etgan ishlab chiqarishni joylashtirish nazariyalari yuzaga keldi. Dunyo geografiyasida o'zining joylashtirish nazariyalari bilan iz qoldirgan I.G.Tyunen, A.Veber, V.Laungard, V.Kristaller, A.Lyosh, I.I.Uilson, P.P.Semenov Tyan-Shanskiy, A.Bogdanov, J.Zipf va F.Perru kabi tadqiqotchilarning aholini joylashtirish haqidagi nazariyalari qisman ko'rib chiqamiz.

NATIJAR VA MUHOKAMA

"Qishloq xo'jaligi standarti" nazariyasi. Hududni o'rganish va uning iqtisodiy ixtisoslashuvini tavsiflash yondashuvi bilan bir qatorda, korxonalarining eng foydali o'rnashgan hududini va joylashuvini ("standort" - joylashuvi) aniqlash ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etishning asosi sifatida e'tirof etildi.

I.G.Tyunenning "Biqiq davlat" (1826 y.) asari dastlabki modellardan biri bo'ldi. Modelga ko'ra harajatlar va foydaning korxonaga ixtisoslashuviga ta'sirini aniqlash masalalari ko'rib chiqildi [5]. Asarda nonning narhi, boylik va soliqlarning qishloq xo'jaligiga ta'siri o'rganildi.

I.Tyunengacha ishlab chiqarishni joylashtirish bilan bog'liq masalalar asosan to'plangan tajriba asosida alohida korxonalarining eng yaxshi joylashuvini aniqlash bo'yicha xususiy tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan edi. I.Tyunenning fundamental ishida asosiy jihat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini taqsimlash qonuniyatlarini aniqlashga qaratdi.

Albatta, I.Tyunenning tadqiqotlari yuqori darajadagi mavhumlikni juda aniq shakllantirish bilan ajralib turardi. U dastlab bir qator shartlarni aniq aytib berdi. Iqtisodiy jihatdan dunyoning qolgan qismidan ajratilgan davlat paydo bo'ladi, uning ichida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yagona bozori va butun davlatni sanoat tovarlari bilan ta'minlash manbai bo'lgan markaziy shahar mavjud bo'ladi. Shahar va boshqa hudud (sanoat - qishloq xo'jaligi) o'rtasida iqtisodiy funksiyalarning aniq chegarasi mavjud. Shtatning istalgan joyidagi har bir mahsulotning narxi uning shahardagi narxidan yukning og'irligi va tashish masofasiga to'g'ridan-to'g'ri proporsional deb hisoblangan transport xarajatlari miqdori bilan farq qiladi. Joylashtirish mezonini sifatida minimal transport xarajatlari olinadi.

Bundan tashqari, ko'rib chiqilayotgan hudud izotropik deb taxmin qilinadi, ya'ni, bir xil tabiiy sharoitga, shu jumladan bir xil tuproqqa ega bo'ladi. Bu esa dehqonchilik uchun hamma joyda birdek qulaylik yaratadi. Transportning faqat bitta turi mavjud (ot arava) bo'lib, daryo va kema qatnovi yo'q. Ya'ni, hududning barcha nuqtalari bir xil sharoitda joylashtirilgan, faqat bitta narsa - shahargacha bo'lgan masofa eng muhim hisoblangan.

I.Tyunen o'rnatilgan shartlar asosida qishloq xo'jaligi qanday shakllarga ega bo'lishini, "agar bu dehqonchilik ancha oqilona olib borilgan bo'lsa" shahardan uzoqlashilgani sari joylashgan vositalar qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlash vazifasini qo'ydi. U mahsulot ishlab chiqarilgan joydan bozorga olib o'tish uchun transport xarajatlarini solishtirish orqali qo'yilgan savolga javob topadi. Natijada, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini o'z chegaralarida joylashtirish va ular tarkibidagi fermer xo'jaliklarini qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish uchun eng qulay zonalarini (transport xarajatlarini minimallashtirish nuqtai-nazaridan) aniqladi.

Muayyan mahsulot ishlab chiqarish joyidan qat'iy nazar bir xil narxda sotilishidan kelib chiqib, I.Tyunen joylashuv bo'yicha yer rentasi nazariyasining asosiy qoidalarini asoslab berdi. Bu markazga nisbatan yaqinroq joylashgan fermer xo'jaliklarida transport xarajatlarini tejash miqdoriga teng. Haligacha qishloq xo'jaligi yuritilayotgan eng chekka hududda ijara haqi nolga teng. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish uchun minimal transport xarajatlari maksimal yer ijarasiga to'g'ri keladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, I.Tyunen o'z tahlilini o'zining joylashuv bo'yicha renta nazariyasidagi David Rikardo (1772-1823) dan tubdan farqli jihatlarini bo'lishga qaramay, ularning xulosalari butunlay mos keladi.

I.Tyunen tomonidan ilgari surilgan farazlar doirasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining optimal sxemasi qishloq xo'jaligi faoliyatining har xil turlarini joylashtirish zonalariga mos keladigan markaziy shahar atrofida turli diametrlilik konsentrik doiralar (belbog'lar) tizimi hisoblanadi. Buni shahardan ma'lum bir ekinning joylashishi hosildorlikka qarab belgilanishi bilan izohlash mumkin - hosil qanchalik yuqori bo'lsa, tegishli ekin shaharga yaqinroq joylashishi kerak. Aks holda, transport xarajatlarining oshishi tufayli daromad yo'qoladi. Boshqa tomondan, mahsulot qanchalik qimmat bo'lsa, uni shahardan uzoqroqda joylashtirish tavsiya etiladi. Natijada shahardan uzoqlashgan sari dehqonchilikning intensivligi pasayadi. I.Tyunenning ushbu modeli haqida boshqa manbalarda ham batafsil to'xtalib o'tilgan [7].

"Sanoat standarti" nazariyalari. Agar I.Tyunen qishloq xo'jaligini joylashtirish modellarini zamonga mos ravishda ko'rib chiqqan bo'lsa, XIX-asrning 2-yarmidan boshlab sanoatning intensiv rivojlanishi sanoat korxonalarini joylashtirishni asoslash masalasini kun tartibiga olib chiqdi. Ishlab chiqarishni rivojlantirishga qo'yilayotgan yangi talablar ta'sirida ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish sohasida bir qator yangi tadqiqotlar paydo bo'ldi. Ular joylashtirish nazariyasining yangi yo'nalishi - sanoat stanlartlari nazariyasiga asos soldi.

Ayrim sanoat korxonalarining joylashuvi bo'yicha ma'lumotlarni to'plash orqali nazariy tushunchalarni shakllantirish matematik usullar tahlilisiz u qadar ham obyektiv (ahamiyatli) emas. Odatda, ilmiy-tadqiqot ishlarini ishlab chiqarishni joylashtirish sohasiga matematik usullardan keng foydalanish bilan amalga oshirish nemis iqtisodchisi Vilgelm Laungard tadqiqotlari bilan bog'liq [9].

V.Laungard o'zining "Sanoat korxonasining ratsional standartini aniqlash" (1882) nomli ishida mahsulotni sotish bozori uchun xom ashyo manbalariga nisbatan yakka tartibdagi sanoat korxonasining optimal joylashuvini topish usulini taklif qildi. U ikkita xom ashyo manbalari va bozor bilan oddiy vaziyatda qanday qilib optimal taqsimotni topish mumkinligini ko'rsatishga harakat qildi.

V.Laungard tashqaridan ta'sir bo'lmagan holda izolyatsiya qilingan hududni ko'rib chiqdi. Bu sanoat joylashgan hudud bir xil re'lefga (nazariyaga ko'ra tep tekis) ega bo'lishi va bir xil transport sanoat markazining turli tomonlariga bir xil masofada kirib chiqishi lozim edi. Bunda xom-ashyo

manbalari, ishlab chiqarish va tayyor mahsulot iste'molchisining joylashuvi ham oldindan ma'lum edi. Ishlab chiqarish hududidagi jarayonlar o'rganilayotgan barcha nuqtalar uchun teng deb hisoblandi. Xom ashyo, mahsulotlarni va tayyor mahsulotlarni tashish uchun transport narhlari bir xil bo'ladi va shu orqali sanoatning standartini yuzaga keladi deb hisobladi. V.Laungard uchun ham, I.Tyunen kabi ishlab chiqarishni hal qiluvchi omili transport bo'ldi.

Muammoni hal qilishning yagona yo'li - korxonaning joylashuvining yuk zahiralari (xom ashyo, yoqilg'i va tayyor mahsulot) vazn nisbatiga bog'liq edi. Sanoat korxonasining optimal joylashuvini aniqlashning bunday usuli og'irlik (yoki joylashish) uchburchak usuli deb ataladi [4].

1909-yilda nemis iqtisodchisi va sotsiologi A.Veber "Sanoatning joylashuvi haqida: Standortning sof nazariyasi" nomli mashhur asarini nashr etdi. Muallif o'z oldiga izolyatsiya qilingan korxonani ko'rib chiqish asosida ishlab chiqarishni joylashtirishning umumiy yoki "sof" nazariyasini yaratish vazifasini qo'ydi. Shu bilan birga, joylashtirish haqiqiy voqelikni aks ettirmaydigan bir qator soddashtiruvchi taxminlar bilan tavsiflanadi. Shu ma'noda, asosiy metodologik asoslarga ko'ra, A.Veberning g'oyasi o'zidan avvalgi g'oyalardan tubdan farq qilmadi.

A.Veber, o'zidan oldingilar singari, xomashyo va yoqilg'i manbalarining joylashuvi aniqlanadigan alohida hududni ko'rib chiqishdan kelib chiqadi. Sanoat mahsulotlarini iste'mol qilish markazlarining (bozorlarining) joylashuvi va sig'imi oldindan hal qilinadi. Bu har bir ishlab chiqaruvchi cheksiz bozorga ega bo'lgan va joy tanlashda monopolistik afzalliklarga ega bo'lmaganda mukammal iste'mol sharoitlarini nazarda tutadi. Mamlakatning turli hududlarida ishchilarning ish haqi miqdori va mehnat intensivligi ham doimiy bo'lib qoladi deb taxmin qilinadi.

Biroq, A.Veber I.Tyunen va V.Launxardlarga nisbatan tubdan yangi qadam tashladi. U o'z tahliliga transport xarajatlaridan tashqari ishlab chiqarishni joylashtirishning yangi omillarini kiritadi va ishlab chiqarishni joylashtirish mezoni sifatida minimal ishlab chiqarish xarajatlarini oladi. Bunda, yanada kengroq optimallashtirish vazifasi qo'yilib, nafaqat transportni, balki umumiy ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish nazarda tutiladi [3].

XIX-asr oxiri - XX-asr boshlarida iqtisodiyotning alohida tarmoqlarining rivojlanishi va joylashishini tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar rivojlana boshladi. Bu yo'nalishda juda ko'p ishlar qilindi - I.I.Uilson (1869), P.P.Semenov-Tyan-Shanskiy (1871, 1880), Y.E.Yanson (1878), D.I.Mendeleyev (1893) va boshqalar tadqiqotlari shakllandi. Ularning barchasi ishlab chiqarish joyini tanlashda tabiiy resurslar va sharoitlarga to'la bog'liq bo'lishi, ya'ni, hududning tabiiy poydevori bo'lishi bilan belgilandi.

Shu bilan birga, antropogeografik yo'nalishning shakllanishi ham boshlandi, bu esa aholi geografiyasining keyingi shakllanishiga turtki berdi. Ushbu yo'nalish tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishga asoslangan bo'lib, u birinchi navbatda tabiiy sharoitlarning aholi punktlari va xo'jalik faoliyatiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan edi. Rossiyada bu yo'nalish D.N.Anuchin, A.I.Voyeykov, P.P.Semenov-Tyan-Shanskiylar tomonidan, xorijda - F.Ratsel, X.Makkinder, I.Bouman va boshqalar tomonidan shakllantirildi.

XX-asrning birinchi yarmida aholi punktlarining geografik (fazoviy) joylashuvi bo'yicha chuqurroq izlanishlar boshlandi. Taklif etilayotgan modellar esa shaharlar geografiyasining yaratilgan modellari asosida ishlab chiqilgan edi. Tabiiyki, birinchi bosqichlarda geografik obyektlarni bir xil makonda optimal joylashtirishni topish uchun yaratilgan modellarda hududlar relyef, iqlim va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning nuqtai-nazardan bir xillikka ega bo'lishi kerak edi. Shundagina ishlab chiqilgan modellar asosida joylashtirish amalga oshirilsa ideal hudud shakllanishi lozim edi. Aholining zichligi va xarid qobiliyati ham, transport aloqalari ham hamma uchun bil xil bog'liqlikka ega bo'lishi, soddaroq qilib aytganda hudud cheksiz tep-tekis bo'lishi kerak edi.

Bunday modellar, albatta, hayot haqiqatiga mos kela olmaydi. Mavjud taqsimotni bu model bilan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, nafaqat tabiiy makonning notekisligi ideal taqsimot tushunchasini sezilarli darajada o'zgartiradi. Bu jarayonga inson faoliyati ham katta ta'sir ko'rsatadi - u tabiiy (obyektiv) qonunlarga (shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy qonunlarga ham) bo'ysunadi, bu aholining taqsimlanishiga sezilarli ta'sir qiladi. Ularning barchasi birgalikda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilaydi.

Shunga qaramay, birinchi ideallashtirilgan modellar asosida ishlab chiqilgan aholini joylashtirishning umumiy qoidalari va uslublari o'z kuchini saqlab qoladi. Aholi punktlari tasodifiy joylashgan emas, balki shaharlardan to yirik qishloqlargacha murakkab tuzilmani tashkil qiladi. Katta, o'rta va kichik shaharlarning joylashishi esa tarixiy, tabiiy va iqtisodiy omillarning o'zaro ta'siri natijasi bo'ladi.

Shahar geografiyasining modellarini yaratgan birinchi rus olimlaridan biri P.P.Semenov-Tyan-Shanskiydir. U 1910-yilda nashr etilgan "Yevropa Rossiyasining shahar va qishloqlari" asarida u o'ziga xos geografik qonunni asosladi. Unga ko'ra shahar sayyoralar tizimining markazini ifodalaydi, uning atrofidagi radiuslar bo'ylab, ma'lum masofalarda, kichikroq shaharcha, qishloq yoki mayda aholi punktlari joylashadi. Yordamchi shaharlar iqtisodiy jihatdan asosiy shaharga bog'liq bo'lgan aloqalarni hosil qiladi.

Aholi punktini o'rganishning rivojlanishidagi muhim bosqich A.A.Bogdanovning 1928-yilda nashr etilgan "Umumiy tashkiliy fan" asarida keltiriladi. Unda "Tuzilishning elementar tarkibining eng batafsil tavsifi ham ma'lum tizimning tabiati yoki xatti-harakatlari rivojlanishi haqida to'la ma'lumot bermaydi" degan xulosani beradi. Tizim haqidagi bilimlar uni tashkil etish g'oyasi asosida shakllanadi hamda tizimning xatti-harakatlarida yo'nalishni ta'minlaydi.

A.Bogdanov (1928) bir nechta tizimlar (komplekslar) - tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va bir-biriga bog'langan ijtimoiy-iqtisodiy elementlardan tashkil topgan geterogen xususiyatga ega komplekslarni aniqladi. Aynan oxirgi tizim ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalarini maqsadli birlikda tashkil qiladi. Elementlarni geterogen tizimga o'tkazish elementlarning munosabatlari va aloqalariga, tashqi omillarga va atrof-muhitga qarab amalga oshiriladi. Shu bilan birga, u mutlaqo bir xil komplekslar yoki elementlar hech qachon uchrashmaydi, degan muhim fikrni aytadi, chunki ularning paydo bo'lishi va yashash sharoitlari, shuningdek, atrof-muhit bilan munosabatlari har xil bo'ladi. Biroq, ularning tashkil etilishining o'xshashligini aks ettiruvchi umumiy tizimli o'xshashliklar mavjud. Shunday qilib, A.A.Bogdanov ularni tashkil etishning umumiy tamoyillari asosida geterogen tizimlarni tizimli tahlil qilishning uslubiy asoslarini yaratdi.

A.Bogdanov bilan bir vaqtda hududni o'rganishda yangi yo'nalish - 1928-yilda nemis olimi G.Shpettman asos solgan dinamik mintaqaviy geografiyada paydo bo'ldi. U hududda harakat qilayotgan 10 ta asosiy "kuch"ni aniqladi. Ulardan uchtasi tabiiy kuchlardir. Ular - iqlim, o'simlik, relyef, qolgan yettitasi ijtimoiy kuchlardir: texnikaviy, moliyaviy, inqirozlar, foydali qazilmalar, shaxs kuchi, diniy kuchlar, turmush darajasi va madaniyat. Tabiiy kuchlarning sekin o'zgarishiga asoslanib, u ularga kamroq ahamiyat qaratgan [1, c. 52].

XX asr boshlarida nemis geografi F.Auerbax hududdagi (yagona tizimda) turli o'lchamdagi shaharlar sonining nisbati haqidagi haqiqiy ma'lumotlarni tahlil qilib, har bir shahar aholisining soni to'g'risidagi qonunni aniqladi. Shaharlar aholisi soni eng katta shahar aholisi sonining yarmiga teng bo'lib kichiklashib boradi degan xulosani berdi. Masalan ikkinchi eng katta shahar birinchi eng katta shahar (yetakchi shahar) aholisining taxminan teng bo'lib, shu tartibda qatordagi ma'lum bir shaharning soniga bo'linadi.

Auerbax qonuni keng ommaga ma'lum bo'lmadi, ammo tez orada inson faoliyatining boshqa turlarini taqsimlashda shunga o'xshash tizimlashtirish sotsiolog Jorj Zipf tomonidan topildi va shundan keyin bu metod "Zipfning darajali o'lchami" deb atala boshlandi [8].

Zipf qoidasiga ko'ra, agar hudud yaxlit iqtisodiy rayon bo'lsa, n - o'rindagi shahar aholisi eng yirik shahar aholisi sonining $1/n$ qismini tashkil qiladi.

$$N_r = N_1/R$$

Bu yerda:

N_r - R shahar aholisining soni;

N_1 - eng yirik shahar aholisining soni;

R - shu shaharning darajasi.

Shunday qilib, agar taxminiy mamlakatda eng yirik shaharning aholisi (1-o'rin) 1 mln kishi bo'lsa, 2-shaharning (2-o'rin) taxminiy aholisi 500 ming kishi, 3-chi shaharning aholisi 333 ming kishi, 4-o'rin shaharning aholisi - 250 ming kishi va 5-chi shaharning aholisi - 200 ming kishi bo'ladi va hokazo.

Keyinchalik formula o'zgartirildi va hududning o'ziga xos xususiyatlariga o'zgartirish kiritildi:

$$N_r = N_1/R^b$$

Bu yerda: b - tuzatish konstantasi.

Shaharlarni taqsimlashda "darajali" qoidasidan chetga chiqish iqtisodiy rivojlanish tarixi va xususiyatlari, tabiiy sharoit, davlatning shakllanishidagi makon xususiyatlarining tabiiy yo'nalishi buzilishi va boshqa omillar bilan bog'liq bo'ladi.

Ideal taqsimotdan sezilarli darajada og'ishlar rivojlanayotgan mamlakatlarda mavjud bo'lib, ularda eng yirik shaharlari ko'pincha mamlakat chekkasida joylashadi. Sababi mustamlakachilar tomonidan poytaxtlar - hududning iqtisodiy rivojlanishi uchun darvozalar vazifasini bajarishga moslab va kirib chiqishni osonlashtirish maqsadida tashqi hudud bilan oson bog'lanadigan

hududda shakllantiriladi. Hududning qolgan qismi uzoq vaqt davomida yirik shaharlar shakllanishidan mahrum bo'ladi.

G'arb tipidagi barcha zamonaviy poytaxt shaharlar sanoat, banklar, ta'lim va madaniyatni o'zida jamlangan va ular mamlakatning turli burchaklaridan qishloq migrantlarini yuqori daromad va yaxshi hayot izlab bu yerga intilishiga sabab bo'ldi.

Agar mamlakatda taqsimot egri chiziq shaklida taqdim etilsa va mamlakatda shahar aholisining asosiy qismi to'plangan faqat bitta yirik shahar bo'lsa, egri chiziq "primat" deb ataladigan shaklga ega bo'ladi (P.Haggett bo'yicha). Bu egri chiziq "mukammal joylashuv" darajasiga erishishi uchun Zipf qoidasiga mos kelishi, agar hudud yaxlit iqtisodiy rayon bo'lsa, eng yirik shahardan keyingi shaharlar aholisi soni bo'yicha mamlakatdagi o'rnining (n ning) $1/n$ qismini tashkil etishi kerak. Amalda bunday qoidaga mos keluvchi shaharni uchratish qiyin. Bundan tashqari ko'pchilik mamlakatlar eng yirik shahar asosan poytaxt shaharlar bo'lib, odatda ular kamdan kam xollarda mamlakat markazidan joy oladi.

Ikkinchi tip shaharlari mamlakat iqtisodiyotning qisqa rivojlanish tarixiga ega bo'lgan, yagona yirik shaharning hukmron roliga ega bo'lgan kam rivojlangan shaharlar tizimiga xosdir, bu shaharlar mamlakat hududida uchun emas, balki asosan xorij uchun ahamiyatli bo'ladi. Albatta bunday shaharlar qatoriga Toshkent ham kiradi. Uning joylashgan o'rnini mamlakat chekkasida, asosan transport nuqtai-nazardan ahamiyati hisobga olinib tanlangan bo'lib, undan keyingi 2- shahar (Namangan shahri) aholisi uning yarmiga teng emas (1-jadval).

1-jadval

Zipfning darajali o'lchami bo'yicha respublika shaharlarining solishtirma holati


Zipfning darajali o'lchami bo'yicha				Ruspublika shaharlari holati			
T/r	Shaharlar	Ulush	Aholi soni	T/r	Shaharlar	Ulush	Aholi soni
1	1-shahar	1	1000000	1	Toshkent	1	2956384
2	1-shahar	1/2	500000	2	Namangan	1/5	678154
3	1-shahar	1/3	333000	3	Samarqand	1/5	572835
4	1-shahar	1/4	250000	4	Andijon	1/6	468055
5	1-shahar	1/5	200000	5	Nukus	1/9	334557

Haggettning fikricha, bunday taqsimotlar mos ravishda ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi deb ataladi. Bunday holda, haqiqiy egri chiziq mukammal joylashuv chizig'idan yuqorida joylashgan bo'ladi (1-rasm).

Ushbu usulning biroz reallikka mos kelmasligiga qaramay, "darajali o'lcham" qoidasi umumiy o'sish jarayonida ma'lum bir muvozanat mexanizmining ta'siri natijasini ifodalaydi. Hisob-kitob ishlari takomillashib borgan u Zipf egri chizig'iga tobora ko'proq mos kela boshlaydi. Unga asoslanib, mamlakat va mintaqadagi shaharlarning hududiy tizimining shakllanish darajasini, uning rivojlanish bosqichini baholash va og'ish sabablarini tahlil qilish mumkin. Bu ko'rib chiqilayotgan usulni vaqt bo'yicha shaharlarning hududiy tizimlarini o'rganish va turli mamlakatlar va mintaqalardagi shaharlar tizimini taqqoslashning qulay vositasiga aylantiradi.

Markaziy o'rinlar nazariyasi. Markaziy o'rinlar (joylar) nazariyasining asoschisi nemis geografi Valter Kristallerdir. Bu nazariya shuni ko'rsatadiki, aholi va xo'jalik faoliyatining har qanday taqsimoti aholini har xil turdagi tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlaydigan markaziy joylar - aholi punktlarining mavjudligi va o'zaro ta'siri bilan belgilanadi. Nazariyaning asosiy elementlari "markaziy joylar piramidasi" va "joy qonuni" bo'lib, unga ko'ra markaziy joyning aholisi qancha kam bo'lsa, bunday markaziy joylar shunchalik ko'p bo'ladi. Shuningdek, V.Kristallerning fikricha, ko'pgina shaharlar hududi ta'sir doiralari (xizmat ko'rsatish va sotish) bo'lingan bo'lib, ular vaqt o'tishi bilan muntazam olti burchaklar hosil bo'lib, panjara hosil qiladi va bu Kristaller panjarasi deyiladi. Bunday markaziy o'rinlar mahsulotni tarqatish yoki xizmatlar markazlariga sayohat qilish uchun o'rtacha masofani minimallashtiradi.

V.Kristaller modelida shaharlarni joylashtirishda ularning kattaligi va chakana savdo markazi funksiyalarining rivojlanish darajasi o'rtasida bog'liqlik mavjud. Yuqori tartibli (ya'ni, markaziy o'ringa eng yaqin) va ko'proq aholiga ega markazlar kengroq tovar va xizmatlarni taqdim etadi. Shunga ko'ra, kattaroq shaharga unga eng yaqin bo'lgan bir nechta olti burchaklar xizmat qiladi.



1-rasm. Zipfning darajali o'lchami tuzilishi.

Hududni markaziy joylar prinsipi asosida tashkil etishga misol sifatida ta'lim muassasalarini joylashtirilishi keltirish mumkin. Biror viloyatning ma'muriy tumanida shu tuman o'quvchilariga xizmat qiladigan maktablar bo'ladi. Viloyat markazlarida esa albatta, oliy o'quv yurtlari mavjud bo'ladi. Mazkur oliy o'quv yurtlari ushbu hudud talabalaridan tortib atrofdagi ma'muriy tumanlar talabalarigacha taxsil oladi. OTMdan uzoqlashilgani sari talabalar soni qisqarib boraveradi. Mana shunday jihatlarni Kristaller modeli sifatida ko'riladi.

Aholining tortishish (gravitatsiya) nazariyasi. Bu nazariya 1940-yillarning boshida amerikalik geograf Uilyam Denter tomonidan ishlab chiqilgan. Unda aholining hududiy taqsimoti gravitatsiyaviy hovuz va gravitatsion oqim modeli orqali tushuntiriladi. Qisman g'oya V.Kristallerning modeliga o'xshash bo'lsa-da, biroz farqli jihatlarga ega. Tortishish nazariyasi bo'yicha markaziy aholi maskanlari hovuzga, undan kichikroq aholi punktlariga bog'lanishlar oqimlarga o'xshatiladi. Bunda markaziy joylar va ularning aholi jalb etilishi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi.

Shuningdek, aholining hududiy joylashuviga migratsiya jarayonlari ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Aholi joylanishidagi migratsion harakatlarga oid nazariyalar A.J.Lotka, V.Velter, V.Vaydlax, D.S.Chernavskiyilar tadqiqotlarida uchraydi.

A.Lyoshning "fazoviy iqtisodiyot" nazariyasi. XX-asrning 30-yillari oxiri - 40-yillarning boshlarida ishlab chiqilgan ishlab chiqarish kuchlarini taqsimlash nazariyalari yetarli emas edi. Yangi korxonalarini qurish uchun maydonlarni tanlash va hududiy iqtisodiyotning fazoviy tuzilmasini shakllantirishni asoslash ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir qiluvchi omillarning ancha keng doirasini hisobga olishni talab qilardi. Shu bilan birga, tadbirkorlar uchun maksimal foyda olish shartlarini bajarish kerak edi. Bu talablarni qondirishga imkon beradigan nazariyalarga ehtiyoj

yuzaga keldi. Ushbu turdagi eng muhim ishlardan biri taniqli nemis iqtisodchisi Avgust Lyoshning "fazoviy iqtisodiyot" nazariyasi edi. Uning "Xo'jalikni fazoviy tashkil etish" asari 1940 yilda nashr etildi va butun dunyoda e'tirof etildi.

100 yildan ortiq vaqt davomida yaratilgan ishlab chiqarishni joylashtirish va aholi punktlariga oid barcha ma'lum xususiy nazariyalarni (I.Tyunen, A.Veber, V.Kristaller va boshqalar) umumlashtirgan A.Lyoshning nazariyasi sohada deyarli barcha yo'nalishlarda olg'a siljishga muvaffaq bo'ldi. Mikrodarajadan - alohida korxonalar va aholi punktlarini ko'rib chiqish, iqtisodiy rayonlarni shakllantirish muammolarini hal qilishgacha xattoki, joylashish (jamiyatning hududiy tashkil etilishi) nazariyasini kengaytirish yo'lida muhim qadam qo'ydi.

A.Lyoshning nazariyasining shundan iboratki, ishlab chiqarishni joylashtirishning asosiy mezonini tadbirkor uchun maksimal foyda olishdir. Avvalgi tadqiqotchilardan farqli o'laroq, A.Lyosh korxonalarini va ularning birikmalarini joylashtirishda hisobga olinadigan omillar va shartlar tarkibini sezilarli darajada kengaytirdi.

O'sish qutblari rivojlanishi nazariyasi (qutblangan landshaft). Fransua Perru taklif qilgan o'sish qutblari nazariyasi umumiy iqtisodiy nazariyaga fazo omilini kiritish orqali qurilgan muvozanatsiz yoki notekis o'sish nazariyasidir. Muvozanatsiz o'sish kontsepsiyasining o'zi, o'z navbatida, qutblanish hodisalariga asoslanadi va iqtisodiy o'sishning fazoviy qonuniyatlari haqidagi ta'limotdir.

Iqtisodiy rivojlanishning keyingi bosqichida korxonalar va aholi punktlarining joylashuvi makonni yanada kengroq va yaxshiroq hisobga olishga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganligini hisobga olgan holda joylashtirishning yangi nazariyalarini talab qildi. 60-yillarga kelib, Fransuz iqtisodchisi, iqtisodiyotdagi sotsiologik maktab vakili Fransua Perru (1903-1987) o'sish qutblarining yangi nazariyasini yoki qutblangan rivojlanish nazariyasini yaratadi.

F.Perru uyg'unlashgan o'sish siyosati amal qilishi kerak bo'lgan uchta tamoyilni belgilaydi: birinchidan, yalpi real mahsulotni maksimal darajada oshirish va uning tebranishlarini minimallashtirish; ikkinchidan, iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirish; uchinchidan, o'sish sur'atlarining mavjud ishchi kuchi, quvvati, investitsiyalar, jamg'armalarga muvofiqligi hisobga olgan holda muvozanatni hosil qilish edi.

Yuqoridagi berilgan nazariyalar qaysi mazmunda ishlab chiqilgan bo'lmasin albatta ularda aholi maskanlari asosiy bo'g'inda bo'lgan. Chunki ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarning obyektida doimo aholi turadi.

XULOSA

Aholining hududiy tashkil etilishi, o'z navbatida, juda ko'p ko'rsatkichlarga bog'liq bo'lgan dinamik tizim ekanli mazkur tadqiqotdan olingan xulosa bo'ldi. Bu tizim geografik mehnat taqsimoti, ishlab chiqaruvchi kuchlarni taqsimlash, migratsiya, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu barcha ko'rsatkichlarni o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi hamda shundagina butun jamiyatning ham, uning alohida hududiy jamoalarining ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rejalashtirish mumkin bo'ladi.

Shu nuqtai-nazardan yaqin tarixda turli joylashtirishlar borasida yaratilgan nazariyalarda ishlab chiqilgan g'oyalarning asosini doimo aholining o'zi tashkil etgan. Shuning uchun har qanday tashkil etishlarni qaysidir ma'noda aholini tashkil etish sifatida qarash mumkin. Olib borilgan izlanishlarda shuni ko'rsatadiki, barqaror iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik omillarni hisobga olgan holda mamlakat jamiyatini hududiy tashkil etishga kompleks yondashuv bilangina uning barqarorligi ta'minlash mumkinligi ko'rsatgan. To'g'ri hududiy tashkil etishgina jamiyatni barqaror rivojlanishiga, jamiyat va tabiatning o'zaro ta'sirida mumkin qadar optimallikka erishtiradi. Shuning uchun jamiyatning yoki jamiyat aholisining hududiy tashkil etilishini barcha aloqalar va tuzilmalarni shakllantirishning zamonaviy jarayonlarini hisobga olgan holda, o'zaro bog'langan va boshqaruv tuzilmalari bilan birlashtirilgan tashkil etishlarga dolzarblik kasb etib boraveradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Агафонов Н.Т. Государственная стратегия регионального развития России: смена парадигмы территориальной организации общества. Санкт-Петербург. Издательство ЗАО "Центр стратег. анализа обществ. процессов". 1998 г. 52 с.
2. Аҳмадалиев Ю., Абдувалиев Ҳ. Фарғона водийсида аҳоли жойлашувини ландшафт омили асосида такомиллаштириш. Монография. "Classic" нашриёти, Фарғона, 2021. 140 б.
3. Вебер, Ал. Идеи к проблемам социологии государства и культуры / Ал. Вебер. – Москва : Директ-Медиа, 2007. – 340 с.
4. Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. – М.: ГУВШЭ, 2001

5. Солиев А. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари. – Тошкент: Университет, 2007. – 92 б.
6. Чернавский Д.С. Базовая динамическая модель экономики России: инструмент поддержки принятия решений / Д. С. Чернавский, Н. И. Старков, А. В. Шчербаков. М.- 2001. 19 с.
7. Шумпетер Й. История экономического анализа. — СПб.: Экономическая школа, 2004. — С. 613.
8. Axtell, Robert L. Zipf distribution of US firm sizes. American Association for the Advancement of Science (2001). Архивировано из оригинала 23 сентября 2015 года.
9. Launhardt W. Theorie des Trassierens Teil I, Schmorl, von Seefeld, Hannover. 1887.